| Bank tizimi samaradorligini oshirishda chakana bank xizmatlarining o'rni..... | 812 |
| Raxmatov Temur Sotiboldiyevich , PhD | |
| Lizing faoliyatini kreditlashda andarraytingdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari..... | 818 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna | |
| Milliy moliya bozorini rivojlantirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar..... | 824 |
| Burxanov A. U. , i.f.d., professor, Muratov Amir Timur ug'li , talaba | |
| Iqtisodiyotda yashil innovatsiyalarni joriy etishni konseptual asoslari..... | 829 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna , kafedra dotsenti | |
| Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли..... | 835 |
| Узакова Камола Бехзодовна , ассистент кафедры | |
| O'zbekiston va MDH mamlakatlari soliq tizimining qiyosiy tahlili..... | 839 |
| Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchi | |
| Soliq ma'muriyatchiligi tizimida samarali soliq nazoratini tashkil etish masalalari..... | 845 |
| Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li , Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchilar | |
| Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati..... | 851 |
| Murodova Mohigul Chori qizi , katta o'qituvchi | |
| Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarining o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari..... | 855 |
| Otajonova Maftuna Sultonmurodovna , tayanch doktorant | |
| Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish..... | 859 |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n. | |
| Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida..... | 863 |
| Sheraliyeva Saida Azatovna , katta o'qituvchi | |
| Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi..... | 868 |
| Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant | |
| O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari..... | 875 |
| Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions..... | 879 |
| Ergasheva Malikakhon , Independent researcher | |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida..... | 884 |
| Amanov Otabek Amankulovich | |
| Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida..... | 888 |
| Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant | |



TASHQI SAVDO – STATISTIK O'RGANISHNING OBYEKTI SIFATIDA

Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo atamasi va uning turlari tadqiq qilingan. Statistik tadqiqot obekti sifatida asosan tashqi savdo va unga berilgan ta'riflar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, eksport, import, tovar, xizmat, ichki savdo, chakana savdo, ulgurji savdo, elektron tijorat savdo.

Abstract: This article examines the trade term and its types. As an object of statistical research, mainly foreign trade and its definitions were studied.

Key words: foreign trade, export, import, goods, services, domestic trade, retail trade, wholesale trade, e-commerce.

Аннотация: В данной статье рассматривается торговый термин и его виды. В качестве объекта статистического исследования изучалась главным образом внешняя торговля и ее определения.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, товары, услуги, внутренняя торговля, розничная торговля, оптовая торговля, электронная торговля.

KIRISH

Dunyo bo'ylab yuqori darajadagi raqamli integratsiya jarayonlarining davomli shakllanayotganligi mamlakatlarni jahon bozoriga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib bormoqda. Barcha tovar va xizmatlar sohalaridagi raqamlashuv jarayonlari, o'z o'zidan mamlakatlarni jahon bozoriga bo'lgan zaruriyatini oshirmoqda. Zamonaviy raqamli dunyoning shakllanish jarayonlari oqibatida jahon xo'jaligida yangidan yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga kelmoqda, shu bois tashqi savdo jarayonlarini kengroq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan kun ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlari bugungi kunda xalqaro savdoda aktiv faoliyat olib borishga intilishmoqda. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanish uchun savdo aloqalari mustahkamlashga intilishgani bejizga emas. Iqtisodiy jihatdan ayta olamizki, tashqi savdoni rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga sababchi bo'la oladi. Biroq, ba'zi geosiyosiy tarangliklar ta'sirlari tashqi savdo hajmiga albatta salbiy ta'sir ko'rsata oladi. Yuqoridagi ta'kid bo'yicha Birlashgan millatlar tashkilotining 2022-yil 13-dekabrda savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida (UNCTAD) ma'lum qilinishicha "2022-yilda xalqaro savdo hajmi 32 trilion dollarlik rekordni zabt etgan. Umuman olganda pandemiya va Ukrainadagi urush ta'siriga qaramay tovar va xizmatlar hajmi sezilarli o'sishga erishgan. Tovarlar hajmi energiya narxidagi o'sish sababli 10 % ga oshgan, ya'ni 25 trilion dollarga yetgan bo'lsa, xizmatlar bo'yicha bu ko'rsatkich 7 trilion dollarga yetgan, o'sish esa 15% ni tashkil qilgan. Ammo geosiyosiy taranglik sababli 2023-yilda xalqaro savdo hajmida kamayish kutilmoqda"¹. Shunga qaramay, savdo barcha davrlarda mamlakatlar uchun muhim sanalgan ya'ni, qadimdan mamlakatlar savdo faoliyatlarini rivojlantirish ustida ishlashgan va hozir ham ushbu jarayon jadal ravishda davom etmoqda.

TADQIQOT USULI VA NATIJALARI

Savdo qadimiy tushuncha, odamlar qadimdan savdo qilishadi chunki, ular ishonishadiki tovar almashinuvi ularga foyda keltiradi. Iste'molchilar o'zlariga kerak bo'lgan tovar va xizmatlarni dunyo bo'ylab xarid qilishi ham savdodir ammo, savdo kategoriyasiga ko'ra bu – tashqi savdo hisoblanadi. Ushbu jarayon sirtidan oddiy eshitiladi, biroq bu jarayonda xalqaro savdoni tashkil qiluvchi bir qancha biznes strategiyalar, siyosat va nazariyalar mavjud. Insoniyat shakllanishi bilan savdo faoliyatlari ham shakllangani ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlanib kelinadi biroq, qadimiy yodgorliklar va dalillar asosida "bundan 5200 yil ilgari dastlabki savdo faoliyati dunyoning birinchi shahri qadimgi Mesopotamiyadagi Urukda tashkil qilingan degan" qarashlar mavjud². Uning qishloq

1 Global trade set to hit record \$32 trillion in 2022, but outlook increasingly gloomy for 2023 | UNCTAD


2 Matt Ridley. Humans: Why They Triumphed. www.wsj.com



xo'jaligi murakkab sug'orish kanallari orqali gullab-yashnashi, shaharni savdo vositachilarining uyi bo'lishiga olib kelgan. Kooperativ savdo tarmog'i keyingi davrlar davomida davom etadigan namunani o'rnatgan. Bu hozircha bizga ma'lum bo'lgan savdo tarixing eng tarixiy dalili bo'lib qolmoqda.

Tarixdan ma'lumki, pulni yaratilishidan oldin ham savdo mavjud bo'lgan, odamlar savdolashish jarayonini barter usullarida amalga oshirishgan. Ammo, "savdo" atamasi savdoning barcha kategoriyalarida keng foydalanib kelinishi, bugungi kunda tashqi va ichki savdo kabi alohida bo'g'imlarga ajratib o'rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Savdoni umumiy mamlakatlar yoki shaxslar o'rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi konsepsiyasi deb qaraladi. Aslida uning bir qancha turlari mavjud. Savdo nazariyasi bo'yicha dastlabki tahliliy yondashuv iqtisod fanlari doktori Adam Smit tomonidan yozilgan. Iqtisodiyot uyushgan fan sifatidagi tushuncha 1776-yilda Adam Smit tomonidan nashr etilgan "Xalqlar boyligi" asaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Savdo va xalqaro savdo tushunchalari ham asosan shu qo'lyozmada tasvirlangan. Biroq, Adam Smitdan oldinroq Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya va Gollandiya kabi mamlakatlarni zamonaviy milliy davlatga aylantirgan bir guruh odamlar ya'ni, savdogarlar, bankirlar, hukumat amaldorlari va faylasuflarning xalqaro savdo bo'yicha qo'l yozmalari mavjud.

Savdo atamasiga yana turli ta'riflar keltirib o'tilgan, "Buyuk Sovet Ensiklopediyasi"³ kitobiida shunday deyilgan – "savdo-xalq xo'jaligining tovar aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasigacha bo'lgan harakatini ta'minlovchi tarmog'i" dir. Bu ta'rif keng ma'noda bo'lib, tor ma'noda - ma'noda "savdo bu - tovar sotib olish va ularga sezilarli moddiy o'zgarishlar kiritmasdan ularni qayta sotish demakdir" deb aytib o'tilgan. Savdo atamalariga keladigan bo'lsak ular turli ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan "Katta iqtisodiy lug'at" kitobida Borisov A.B. savdo, ichki savdo hamda tashqi savdo atamalariga ta'riflar berib o'tgan. Unga ko'ra "savdo - tovar sotish, saqlash va sotishga tayyorlashda tovar ayirboshlash hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish obyekti bo'lgan iqtisodiyot tarmog'i va xo'jalik faoliyatining turi bo'lsa, ichki savdo - iqtisodiyotning mamlakat ichki bozorida tijorat mahsulotlarini sotadigan tarmog'idir"⁴. Tashqi va xalqaro savdo bir biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Tashqi savdo bir mamlakatning tashqi savdosini ifodalasa, xalqaro savdo esa bir nechta mamlakatning tashqi savdo faoliyatini ifodalaydi. Rayzberg B. A., va Lozovskiy L. Sh., Starodubseva Ye. B. larning "Zamonaviy iqtisodiy lug'at" kitobiida tashqi savdoni quyidagicha ifodalashgan: "tashqi savdo - boshqa mamlakatlar bilan savdo qilish, mamlakatdan tovarlar eksport qilish va mamlakatga tovarlar olib kirish, Boshqa mamlakatlar bilan savdo qilish, mamlakatdan tovarlar eksport qilish va mamlakatga tovarlar olib kirishidir"⁵. Xalqaro savdoni esa Borisov A.B. "O'zaro savdo qiluvchi davlatlarning savdo aloqalari, tashqi savdo aloqalarining umumiyligi"dir deb izohlagan⁶. Umuman olganda, olimlarning savdo nazariyasi, xalqaro savdo va tashqi savdo tushunchalari ustida turli ilmiy yondashuvlari mavjud. Ba'zi olimlar tashqi savdo bilan ichki savdo maqsadi bir va maqsad ikkalasida ham sotish, shu sabab chegaraning ahamiyati yo'q desa, boshqa taraf olimlari tushuncha bir biri bilan yetarlicha farqga ega deb fikr berishadi. Bizning fikrimizcha ham ichki savdo bilan tashqi savdo bir biridan maqsadi va tashkil qilinish siyosatiga ko'ra bir biridan juda faqrlidir. Ichki savdoda asosan foyda birinchi o'rinda turadi va tadbirkorlik subektlari hamda iste'molchilar amalga oshirishadi. Tashqi savdo orqali yanada kengroq maqsadlarni ko'zlanadi va unda mamlakat siyosati muhim o'rin tutadi.



1.1-rasm: Savdo va uning turlari⁷

3 Российский энциклопедический словарь: РЭС: в 2 кн./ Гл. ред. А.М. Прохоров, редкол.: В.И. Бородулин, А.П. Горкин (Зам. гл. ред.), В.М. Карев [и др.]. – М.: Большая Рос. энцикл., 2001.

4 Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.

5 Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.

6 Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.

7 Muallif tomonidan ishlab chiqiladi.



Tashqi savdo jarayonlari mamlakatlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi bizni ushbu tadqiqot ishimizda tashqi savdoni xalqaro sanoatning tasniflariga muvofiq holda, iqtisodiy statistik tahlilimizning obyekti sifatida ko'rishimizga olib qildi. Birlashgan millatlar tashkilotining ushbu metodologik qo'llanmasiga muvofiq, tashqi savdo ta'rifi quyidacha keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, tashqi savdo-tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va xalqaro narxlar darajasini inobatga olgan holda, Xalqaro tovarlar va xizmatlar almashinuvini keltirib chiqaruvchi, tovarlar, savdo korxonalari, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning tadbirkorlik faoliyati tushuniladi⁸. Shunga ko'ra iqtisodiy o'sishning muhim qo'shimcha omili sifatida, mamlakatning xalqaro aloqalarining kengayishiga sabab bo'lishi tashqi savdoning roli muhimligini anglatadi. Tashqi savdo bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan rus olimi Bayasgalangin Setsge shunday deydi, "Tashqi savdo mamlakat iqtisodiy hayotining ajralmas va juda muhim tarkibiy qismidir. Uning muvozanatli rivojlanishiga eng katta e'tibor qaratish lozim va bu, birinchi navbatda, tashqi savdo strategiyasining maqbul variantini tanlashga tegishli bo'lib, uni amalga oshirish hozirgi iqtisodiy sharoitda ijobiy natijalar beradi"⁹.

S. N. Bludova¹⁰ tashqi savdoning nazariy asoslarini tahlil qilish asosida quyidagi fikrlarga kelgan, tashqi iqtisodiy aloqalar; hozirgi bosqichda xalqaro savdoning klassik nazariyalari, asosan jahon savdosining xususiyatlarini to'liqroq tavsiflovchi tashqi savdo almashinuvining muqobil, neotexnologik konsepsiyalarini shakllantirish uchun asos sifatida qo'llaniladi.

Tashqi savdo bo'yicha iqtisodchi olimlarimiz ham o'z fikrlarini bildirganlar, shu jumladan iqtisodchi olim M. Mirsaidov o'zining Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kitobida tashqi savdoga quyidagicha ta'rif bergan: "Tashqi savdo iqtisodiy tushuncha bo'lib, bir davlat bilan boshqa bir davlat o'rtasidagi tovar va xizmatlarning to'langan importi va va eksportidan tashkil topgan savdosini anglatadi"¹¹.

Mamlakatlar tashqi savdo statistikasini yuritishda Birlashgan millatlar tashkilotining (keyingi o'rinlarda BMT) "Xalqaro tovarlar savdosi statistikasi: tushunchalar va ta'riflar" (IMTS) qo'llanmasidagi tavsiyalar asosida shakllantiriladi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasi ham ushbu qo'llanma me'yorlari asosida shakllantiriladi. Qo'llanmada tovarlar bo'yicha tashqi savdo statistikasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: unga ko'ra "Xalqaro tovarlar savdosi statistikasi (IMTS) atamasi mamlakatlar va hududlar o'rtasida tovarlar harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan ixtisoslashtirilgan, ko'p maqsadli rasmiy statistik ma'lumotlar to'plamini bildiradi". Xalqaro tovarlar savdosi statistikasining ko'lamini ushbu bo'limlarda keltirilgan umumiy va maxsus ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Umumiy ko'rsatkich sifatida xalqaro tovar savdosi statistikasida mamlakatning iqtisodiy hududiga olib kirish yoki undan olib chiqish yo'li bilan uning moddiy resurslar zaxirasiga qo'shiladigan yoki undan ayirib qo'yiladigan barcha tovarlarni hisobga olish tavsiya etiladi:

- tovarlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- savdo bitimining o'ziga xosligi yoki murakkabligi;
- ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq har qanday amaliy fikrlar.

Muayyan mahsulot toifalari uchun maxsus ko'rsatkichlar ushbu mahsulotlarga aniqlik kiritadi:

- tovarlar savdosining xalqaro statistikasiga kiritilishi kerak;
- xalqaro tovar savdosi statistikasiga kiritilmagan;
- tovar savdosining xalqaro statistikasiga kiritilmasligi kerak, lekin to'lov balansi va milliy hisoblar yoki boshqa statistik maqsadlar uchun umumiy xalqaro tovar savdosi ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini berish uchun alohida qayd etilishi kerak.

Butun jahon bo'ylab raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal integratsiya jarayonlari bugungi kunda tashqi savdo jarayonlarini keskin rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, 2019-yilning COVID-19 pandemiyasi ham dunyo mamlakatlarida raqamli integratsiya jarayonlarini keskin jadallashuviga olib kelmoqda. Pandemiyadan keyingi raqamli iqtisodiyot ta'sirida shakllanayotgan jahon xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlari, mamlakatlarning yangi tashqi savdo aloqalari shakllanmoqda. Shu bois bugungi kundagi tashqi savdo jarayonlarini iqtisodiy hamda statistik tadqiq etishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Sir emaski, mamlakatlararo xalqaro savdoning takomillashuvi dunyo bo'ylab kambag'allik darajasini pasaytirishga, qolaversa, ham ichki ham hukumatlar o'rtasidagi munozarali vaziyatlar yechimini taqdim eta oladi. Masalan, biz misol tariqasida firma yoki shaxsni oladigan bo'lsak, uning ancha arzon joydan xizmat yoki mahsulotni olishi ikkala tomonning ham yashash standartlarini yaxshilanishiga olib keladi. Umumiy olib aytganda, tarixdan ma'lumki qaysi hudud rivojlangan bo'lsa, savdo aloqalari o'sha hududda ancha rivojlangan bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar rivojlantirish uchun savdo aloqalari mustahkamlashga intilishgani bejizga emas.

8 The International Trading System and Trade Negotiations | UNCTAD

9 Баясгалангийн Цэцгээ. Диссертация на тему «Математическое моделирование структуры внешней торговли Монголии», по специальности ВАК РФ 08.00.13 - Математические и инструментальные методы экономики. dissercat.com.


10 Диссертация на тему «Методическое обеспечение оценки состояния и формирования направлений развития внешнеэкономического комплекса региона», (dissercat.com)

11 M. Mirsaidov. Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O'quv qo'llanmasi. www.sies.uz



TAHLIL

Iqtisodiy jihatdan ayta olamizki, tashqi savdoni rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga sababchi bo'la oladi. Jahon savdo tashkilotining statistik ma'lumotlari ham shuni ko'rsatadiki rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo hajmlarida doimiy o'sish kuzatiladi. Yurtimizda ham tashqi savdo aloqalarimizni rivojlantirish ishlari jadal tus olmoqda. Jumladan, Joriy 2023-yilning aprel oyida o'tkazilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi ochilishida prezident Sh.M. Mirziyoyev¹² ham buni ta'kidlab o'tdilar. Prezidentimiz "Jahon savdo tashkiloti talablari "O'zbekistondagi islohotlar mazmuniga to'la mos ekanini va investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilingan.



1.2-rasm: Jahon mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (foizda)¹³

Tarix va ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo iqtisodiy o'sishning muhim dastagi hisoblanadi. Jumladan Karliy Shmit va uning jamoasi tomonidan 150 ta dunyo mamlakatlari o'rtasida o'tkazilgan "Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik" mavzusidagi ekonometrik tadqiqotida tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini empirik isbotlashgan. Olimlarga ko'ra savdo hajmini 1 % oshishi yalpi ichki mahsulotni 0.4% oshishiga olib keladi. Bundan ko'rinib turibdiki rivojlangan mamlakatlar doimo tashqi savdo aloqalarini muhim bilib tashqi savdo aylanmasi hajmini oshirish maqsadida savdo aloqalarini kengaytirish ustida ishlashgan. Jahon savdo tashkilotining statistik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasi ularning yalpi ichki mahsulotga solishtirilganda nisbatan katta qismini tashkil qiladi (1.2-rasmga qarang).

1.1-jadval: Dunyo mamlakatlarining tovarlar guruhi bo'yicha eksport hamda import hajmlari (mlrd. AQSH dollarda)¹⁴

| Yillar | 2018 | | 2019 | | 2020 | | 2021 | | 2022 | |
|-------------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|---------|--------|
| Davlatlar | Eksport | Import | Eksport | Import | Eksport | Import | Eksport | Import | Eksport | Import |
| AQSh | 1664.0 | 2614.2 | 1643.2 | 2567.4 | 1424.9 | 2406.9 | 1754.3 | 2935.3 | 2064.3 | 3375.8 |
| Xitoy | 2486.7 | 2135.7 | 2499.5 | 2078.4 | 2590.0 | 2066.0 | 3358.2 | 2686.7 | 3593.5 | 2716.2 |
| Rossiya | 443.9 | 248.9 | 419.7 | 253.9 | 333.5 | 240.1 | 494.4 | 304.0 | 588.3 | 280.4 |
| Fransiya | 582.2 | 676.4 | 571.0 | 654.7 | 488.6 | 581.3 | 585.0 | 715.1 | 617.9 | 818.3 |
| Turkiya | 177.2 | 231.2 | 180.8 | 210.3 | 169.6 | 219.5 | 225.2 | 271.4 | 254.2 | 363.7 |
| Shvetsariya | 310.7 | 279.5 | 313.9 | 277.8 | 319.3 | 292.0 | 380.2 | 324.1 | 401.7 | 356.5 |

12 Prezident: O'zbekiston JSTga tezroq a'zo bo'lib kirishdan manfaatdor (kun.uz)

13 Muallif tomonidan www.stats.wto.org sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

14 Жаҳон савдо ташкilotи (stats.wto.org) ҳам Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги (stat.uz) сайтларидаги маълумотлар асосида тайёрланди.



| | | | | | | | | | | |
|-------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Singapur | 413.0 | 370.9 | 390.8 | 359.3 | 362.5 | 329.8 | 457.4 | 406.2 | 515.8 | 475.6 |
| Germaniya | 1560.5 | 1284.4 | 1489.4 | 1234.0 | 1382.5 | 1171.8 | 1636.7 | 1421.5 | 1657.6 | 1570.8 |
| J. Koreya | 604.9 | 535.2 | 542.2 | 503.3 | 512.5 | 467.6 | 644.4 | 615.1 | 683.6 | 731.4 |
| O'zbekiston | 10.9 | 17.3 | 14.9 | 21.9 | 13.3 | 20.0 | 14.1 | 23.7 | 15.3 | 28.2 |

Statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston hamda rivojlangan mamlakatlarda pandemiya davrida ham tashqi savdo aylanmasi sezilarli yuqorilagan. Yurtimizda oxir besh yilda tovarlar guruhi bo'yicha import va eksport hammi mos ravishda 60% hamda 40 % miqdorda o'sishga erishgan.

Statistik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ishonchli statistik ma'lumotlar bazasi ega bo'lishimiz darkor. Bunda, ma'lumotlarni ishonchli manbaladan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi savdo bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida quyidagi tashkilotlarni aytib o'ta olamiz:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi Bojxona ko'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Tovarlarning tashqi savdosining barcha baholari bojxona statistikasiga asoslanadi, unda importchilar va eksportchilar tomonidan bojxonada e'lon qilingan qiymat hisobga olinadi. Tashqi savdo jarayonlarini ifodalovchi axborot manbalari manbalari bojxona organlariga tegishli va tegishli bo'lmagan manbalar asosida shakllantiriladi. Bojxona organlari asosida yig'ilgan tashqi savdo ma'lumotlari bojxona qo'mitasi deklaratsiyalari va tegishli bojxona hujjatlari ma'lumotlariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matt Ridley. Humans: Why They Triumphed. www.wsj.com
2. Российский энциклопедический словарь: РЭС: в 2 кн./ Гл. ред. А.М. Прохоров, редкол.: В.И. Бородулин, А.П. Горкин (Зам. гл. ред.), В.М. Карев [и др.]. – М.: Большая Рос. энцикл., 2001.
3. Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
4. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Старицкий Е.Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.
5. Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
6. The International Trading System and Trade Negotiations | UNCTAD
7. Баясгалангийн Цэцгээ. Диссертация на тему «Математическое моделирование структуры внешней торговли Монголии», по специальности ВАК РФ 08.00.13 - Математические и инструментальные методы экономики. dissercat.com.
8. Диссертация на тему «Методическое обеспечение оценки состояния и формирования направлений развития внешнеэкономического комплекса региона», (dissercat.com)
9. M. Mirsaidov. Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O'quv qo'llanmasi. www.sies.uz
10. Ergashev, M. (2022). Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mint-aqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash. Sentri nauchnix publikatsiy (buxdu. uz), 13(13).
11. Sherov, A. U., & Qurbonov, A. U. (2022). Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald, 5, 123-126.



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.